

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



I
SON

2024

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

123-456-7890
@reallygreatsite
www.reallygreatsite.com



**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2024-yil
1-SON**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Bekmurodov Adxam Sharipovich, i.f.d., professor
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, i.f.n., dotsent
Qurbonov Samandar Pulatovich, PhD, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, PhD, dotsent
Ismailova Nilufar Sobitdjanovna, i.f.n.
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna,
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li,
Xolmatov Muhridin Mo'min o'g'li,

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич, <i>«Человеческий капитал в условиях цифровизации экономики».....</i>	4
Umurzakov Bahodir Xamidovich, <i>O'zbekistonda demografik rivojlanishning ta'lim tizimiga ta'sir etish jihatlari.....</i>	20
Usmanov Anvar Saidmahmudovich, Bahriddinova Muazzam Azam qizi, <i>Dunyodagi demografik vaziyat va uning rivojlanish istiqbollari.....</i>	34
Зокирова Нодира Каландаровна, Шакаров Зафар Гаффорович, <i>Человеческий капитал в условиях внедрения искусственного интеллекта: вызовы и перспективы.....</i>	46
Мамадалиева Хафиза Холдаровна, <i>Авлодлараро трансферлар ўзбекистон иқтисодиётини ўзгартириш шароитида камбағалликни бартараф этиш воситаси сифатида.....</i>	62
Юлдашев Нурбек Нормуродович, <i>Аҳолининг яқка тартибдаги тадбиркорлик (ЯТТ)ни ташкил этиши ва ўзини ўзи банд қилишининг яширин иқтисодиётни қисқаришига таъсири.....</i>	79
Ташбаева Рано Гайбуллаевна, <i>Многомерная бедность как индикатор социального благополучия населения Республики Узбекистан.....</i>	89
Камилова Наргиза Абдукахоровна, <i>Конкурентоспособность стран в мировом хозяйстве в условиях цифровизации экономики.....</i>	98
Rozmatova Umida Yuldashevna, <i>Nomoddiy aktivlar hisobini shakllantirish.....</i>	105
Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi, <i>Banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali aholini bandligini ta'minlash.....</i>	112
Yunusova Ug'iloy Bolqiboy kizi, <i>The impact of increasing the competitiveness of tourist areas on the level of employment.....</i>	121
Chinorova Shahodat Mansur qizi, <i>The role of higher education institutions in enhancing the attractiveness of human capital.....</i>	130
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir ugli, <i>The use of digital tools in the management of migration processes.....</i>	136
Asqarova Muhabbat Ibraximovna, <i>O'zbekistonda demografik jarayonlarning hududiy tahlili.....</i>	143

DUNYODAGI DEMOGRAFIK VAZIYAT VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Usmanov Anvar Saidmahmudovich -
TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari
ilmiy-tadqiqot markazi bosh ilmiy xodimi, i.f.d., prof.
G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universitetining Toshkent shahridagi filiali,
kafedra professori

Bahriddinova Muazzam Azam qizi
TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari
ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahondagi demografik vaziyatning jahondagi aholi soni va uning ortishiga sabab bo'luvchi omillari, yer yuzida yashaydigan aholi soniga oid ma'lumotlarni to'plash va jamlash, insonning yashash uchun kurashi keyinchalik jamiyat taraqqiyotida progressiv o'zgarishlar, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining aholi soni o'sishiga ta'siri yoritib berilgan. Bundan tashqari maqolada demografik vaziyatning beshta asosiy xususiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Aholi soni, demografik vaziyat, aholi o'sishi, sanoat to'ntarishi, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, aholi qarishi, migratsiya va ishlab chiqarish kuchlari.

ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В МИРЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Усманов Анвар Саидмахмудович
Главный научный сотрудник Научно-исследовательского центра
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при
Ташкентском государственном экономическом университете
д.э.н., проф.

Экономика России имени Г.В. Плеханова
Филиал университета в г. Ташкенте,
Профессора Кафедры

Бахриддинова Муаззам Азамовна -
Экономика Узбекистана в ТГЭУ
Научные основы и проблемы развития
Базовый докторант Исследовательского центра

Аннотация. В данной статье рассматривается демографическая ситуация в мире и факторы, способствующие ее росту, сбору и накоплению данных о численности людей, проживающих на Земле, борьбе за выживание, последующим прогрессивным изменениям в развитии общества, влиянию развития производительных сил на рост населения. Кроме того, в статье раскрываются пять ключевых особенностей демографической ситуации.

Ключевые слова. Население, демография, рост населения, промышленная революция, рождаемость, смертность, браки, разводы, старение населения, миграция и производительные силы.

DEMOGRAPHIC SITUATION IN THE WORLD AND ITS DEVELOPMENT PROSPECTS

Usmanov Anvar Saidmahmudovich-

Economy of Uzbekistan at TSEU

Scientific foundations and problems of development

Chief Researcher of the Research Center, i.f.d., prof.,

Economy of Russia named after G.V. Plekhanov

Branch of the University in Tashkent,

Kafedra Professors

Bahriddinova Muazzam Azamovna-

Economy of Uzbekistan at TSEU

Scientific foundations and problems of development

Basic doctoral student of the Research Center

Annotation. This article discusses the demographic situation in the world and the factors that lead to its growth, the collection and aggregation of data on the world's population, the struggle for survival, the progressive changes in society, the impact of productive forces on population growth. In addition, the article reveals five key features of the demographic situation.

Keywords. Population, demographic situation, population growth, industrial revolution, births, deaths, marriages, divorces, population aging, migration and productive forces.

Kirish. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo aholisining soni 8 mlrd.dan oshib ketdi. Lekin mutaxassislar XXI asr boshlarida dunyo aholisi soni hozirgi mavjud aholi soni miqdoridan ancha ko'proq bo'lishini bashorat qilishgan edi. Chunonchi, aholi sonining ko'payib yoki kamayib borishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga, demografik omillarga, inson hayotida uchrab turadigan kutilmagan voqea va hodisalarga bog'liqdir.

Ilmiy manbalarda koʻrganimizda, sayyoramizda inson paydo boʻlganiga 1 mln yildan oshgan[2]. Ammo yer yuzida yashaydigan aholi soniga oid maʼlumotlarni toʻplash va jamlash ancha kech boshlangan. Aholi sonidagi eng dastlabki maʼlumotlar eramizdan avvalgi davrga taalluqli boʻlib, oʻsha davrda yer yuzida bir necha yuz ming kishi yashagani qayd etilgan. Demograf olimlar va arxeologlarning hisob-kitoblariga koʻra yer yuzidagi aholi soni muntazam ravishda oshib borgan, biroq aholining oʻsish surʼati, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham bir xil boʻlmagan. Baʼzi davrlarda turli tabiiy ofatlar, ocharchilik, turli epidimiologik kasalliklar va qabilalar oʻrtasida boʻladigan turli urushlar natijasida koʻp sonli aholi nobud boʻlgan va buning natijasida aholi soni ham qisqargan. Misol uchun, butun dunyoda 8-14 asrlar oraligʻida epidemiyadan 15 mln. aholi oʻlgan. XIX asrda esa ocharchilikdan 25 million aholi halok boʻlgan. Birinchi jahon urushida 20 mln., ikkinchi jahon urushida esa 40 mln.dan ortiq inson jon bergan.

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, barcha davrlarda ham aholining koʻpayishi va rivojlanishi oʻsha paytdagi ishlab chiqarish usuli va munosabati, turmush darajasiga, yashash sharoitlariga bevosita bogʻliq boʻladi.

Ibtidoiy jamoa davrida, bundan 15 ming yil ilgari aholining yashash sharoiti juda ogʻir boʻlgan. Odamlar gʻorlarda hayot kechirishga majbur boʻlishgan. Chunki oʻsha davrlarda bunday gʻorlar boshpana vazifasini bajargan. Eng muhimi, qorin toʻygʻazish va tunab qolish uchun bexavotir joy topish edi. Odamlar ovchilik bilan kun koʻrishgan, tabiiy ofatlarga qarshi kurasha olmaganlar. Muhitning tabiiy taʼsiriga qarshi insonlar ongli ravishda yechim topa olmaganlari tufayli, oʻlim soni juda yuqori boʻlgan. Bolalar oʻlimi juda yuqori, aholining oʻrtacha umr koʻrish yoshi esa juda qisqa boʻlgan. Manbalarda keltirilishicha, ibtidoiy jamoa davrida aholining oʻrtacha umr koʻrish yoshi 20-25 yoshni tashkil etgan. Demak bundan koʻrinib turibdiki, ibtidoiy davrda odamlar hozirgiga qaraganda 3-3,5 barobar kamroq umr koʻrgan. Ammo shunga qaramasdan, aholi juda sekinlik bilan boʻlsada koʻpayib borgan. Aholi koʻpayishining sababi tugʻilishning fiziologik imkoniyat darajasida boʻlganidir. Oʻsha davrda tugʻilish juda yuqori boʻlib, har 1000 aholiga 40-50 kishini tashkil etgan. Hozir esa bu koʻrsatkich 23-25 kishini tashkil qilmoqda. Demak, bir tomondan aholining tabiiy ofatlar, turli xastaliklar va oʻzaro urushlarda soni kamayib borgan bilan, ayni damda tugʻilish soni yuqori boʻlgani sekin-asta aholi oʻsishiga olib kelgan. Oʻlimning yuqoriligi, ayniqsa bolalar oʻlimi koʻpligi natijasida yuqori tabiiy tugʻilish ham aholining yuqori tabiiy oʻsishini taʼminlab bera olmagan.

Ibtidoiy jamoa davrida aholi oʻsishining sekin boʻlishiga yana bir asosiy sabab ayollarning jismoniy holati ogʻir ekanligi edi. Ular erkaklar bilan ov qilishda qatnashganlar, turmush sharoiti juda ogʻirligidan, tibbiy xizmatning mavjud boʻlmaganidan ayollar oʻlimi juda yuqori boʻlgan. Ayniqsa ayollar

farzand ko'rayotgan paytida ko'p halok bo'lgan. Bu davrda ko'p ayollar bola ko'rish davrini to'laligicha yashamaganlar.

Insonning yashash uchun kurashi keyinchalik jamiyat taraqqiyotida progressiv o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanib, odamlar dastlab, chorvachilik, keyinchalik esa dehqonchilik bilan shug'ullana boshladilar va ochlikka, kasalliklarga qarshi kurashishni yo'llarini o'ylab topa boshladilar. Mehnat qilib moddiy mahsulotlar yarata boshladilar. Hunarmandchilik, savdo rivojlandi shaharlar paydo bo'ldi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida odamlarning hayot sharoitini yaxshilanishiga turtki bo'ldi. Bularni barchasi dunyo aholisini ko'payish sur'atini tezlashishiga sabab bo'ldi. Ishlab chiqarish kuchlarining yanada takomillashuvi esa aholi o'rtasida sinflar va davlat paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtga kelib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida olimlar va mutaxassislar tomonidan demografik vaziyat, uning tarkibi, u bilan bog'liq demografik jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlari o'rganilmoqda. Aholi takror barpo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi hamda unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida fikr va muhozalarini keltirib o'tishgan. Ular tomonidan demografik vaziyat va uning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'siri, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ularning salbiy va ijobiy jihatlarini o'z davrlaridagi mavjud holatlar bo'yicha ko'rsatib o'tishgan.

D.I. Valenteya fikricha "Demografik jarayonlar aholi soni, tarkibi, joylashuvi va sifati dinamikasining tendensiyalarini saqlab qolishni yoki o'zgartirishni nazarda tutuvchi aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat va u demografik vaziyatga bevosita ta'sir o'tkazadi"[3].

Jahon hamjamiyatida mashhur bo'lgan demograf A. Sovining shunday ta'kidlagan: "Demografik vaziyat - o'z oldiga faqat birgina aholining sonini o'zgartirishdan-da kengroq vazifalarni qo'yishi va bir qarashda demografiyadan uzoq bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lgan sohalarni ham qamrab olishi mumkin" [4]. Ko'p tilli demografik lug'atning asosida ham o'sha fikr yotadi, unda "demografik vaziyat, bir tomondan, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillarning, ikkinchi tomondan, demografik jarayonlar va ular oqibatlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash" sifatida ta'riflangan [5]. "Общая теория населения" kitobida "Demografik omillar demografik vaziyatning asosiy qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlari va turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga, yo'nalishlarga egadir" degan fikrni ta'kidlagan [6]. A.Ya. Kvashi "Современная демография" asarida "Barcha aholi qatlamlarining turmush sharoitlarini yaxshilash demografik vaziyatga ta'sir etadi" degan fikrni ilgari suradi [7].

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda, aytish joizki, barcha ta'riflarda davlatning, demografik omillarni nazarda tutgan holda, optimal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish chora-tadbirlari (tartibga solish vositalari) tizimini qo'llash yo'li bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan, boshqaruvchi ta'siri zarurligi muhim hisoblanadi. Demografik jarayonlar nuqtayi nazaridan davlat tomonidan tartibga solish, bizning fikrimizcha, demografik rivojlanishning barcha kichik tizimlari (tug'ilish miqdori, o'lim soni, aholining migratsiyasi va sifati) normal ishlashi uchun eng qulay sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Shu bilan birga bozor islohotlari sharoitida demografik jarayonlarning rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy tartibga soluvchi omillarning ahamiyati ortadi.

Shunday qilib, jahon tajribasidan kelib chiqib va iqtisodchi olimlarning yuqorida keltirilgan ta'riflarini umumlashtirgan holda, demografik jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, iqtisodiy va tashkiliy-xo'jalik mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali demografik jarayonlarga (demografik vaziyat sifatiga) davlat tomonidan ta'sir etish usullari va chora-tadbirlari tizimi tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, hududlar kesimida o'zaro taqqoslash usuli, demografik bashorat usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Demografiyaning fan sifatida vujudga kelishi va ushbu so'zning kelib chiqishi tarixi 1662-yilga borib taqaladi. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi o'rtasida o'lim hollari nihoyatda ko'payib ketgan. Shu bois Londonda har hafta o'lim haqida byulletenlar, ya'ni maxsus ma'lumotnomalar chop etilib, aholiga tarqatilgan. O'z salomatliklarini saqlash maqsadida, mazkur ma'lumotlarni juda ko'p fuqarolar o'qigan. Angliyalik savdogar olim J.Graunt Londonda tug'ilish va o'lim haqidagi 80 yillik ma'lumotlarni o'rganib chiqqan va 1662-yili o'zining 90 betdan iborat " O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatish natijalari ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o'sishi va boshqa o'zgarishlari xususida London fuqarosi Jon Grauntning asari"[8] kitobini yozgan. Kitob juda uzun nomlangan bo'lib, o'z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarni maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birga, asarda demografik jarayonlarning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarning ta'sirini o'rganishga harakat qilingan. Tadqiqotni muallifning zamondoshlari yuksak baholashgan, lekin ular keyingi davr olimlaridan farqli o'laroq ushbu asarni aholi dinamikasi muammolarining tahlili sifatida ko'rib chiqishmagan.

Demografiyaga tamal toshi qo'ygan shaxs sifatida J.Graunt XIX -XX asrlarda demografiya aholi statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab rivojlanayotgan davrida tan

olingan. J.Graunt asarining fundamental tahlili M.V.Ptuxa tomonidan o'tkazilgan, lekin uning ushbu masala bo'yicha qarashlari ma'lum bir ma'noda o'zgarishlarga ham uchradi. 1930-yildagi Aholishunoslik bo'yicha xalqaro kongressda u J.Grauntning demografiyaning asoschisi ekanligini aytib o'tgan, lekin keyingi asarlarida XIII asr statistikasining asoschilari sifatida uch kishini - J.Graunt, V.Petti va E.Gallelarni e'tirof etgan. Shunga qaramasdan, hozirgacha demografiyaning rivojlanish davrini hisoblash Graunt dan boshlanadi, 1963-yilda B.Urlanising J.Graunt tavalludining 300-yilligiga bag'ishlanib chop etilgan maqolasida yozilishicha, "o'tgan asrlar tumanlari orasida qolib ketgan" boshqa fanlardan farqli o'laroq, demografiya fanining vujudga kelish vaqtini aniq belgilash mumkin va J.Graunt "Demografiya fanining otasi" hisoblanadi[9]. "Demografiya" nomli yana bir kitobning muallifi V.A. Borisovning ta'kididan bundan ham keskinroq, u J.Grauntning nafaqat demografiya fanining, balki statistika va sotsiologiyaning ham asoschisi va otasi deb ta'kidlaydi. Nomi keltirilgan mualliflardan farqli o'laroq D.I. Valentey, A.G. Vishnevskiy, D.K. Shelestov va boshqa demograflar demografiyaning vujudga kelishi birdaniga emas, balki jamiyat va xususan aholi haqidagi bilimlarning yig'ilib qolishi natijasida bo'lgan, degan fikrga ko'proq moyillik bildiradi. Shunday qilib aytish mumkinki, J.Graunt davrida, ya'ni XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab intensiv tarzda bilimlarning yig'ilishi davri boshlandi, faqatgina yuz yillardan so'ng siyosiy iqtisod, tarix, huquqshunoslik, jumladan, statistika va siyosiy arifmetikaning qismchasi bo'lgan davlatshunoslik, zamonaviy siyosiy iqtisodiyotning birlamchi ko'rinishi va qisman sotsiologiya kabi fanlarga ajralish jarayoni boshlangan.

Aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'planishi J.Grauntgacha, ya'ni antik davrlarga borib taqaladi. Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilishga bo'lgan birinchi harakatlar Qadimgi Rimda amalga oshirilgan, rimliklar umr davomiyligini hisoblab chiqish bo'yicha yondashuvlarini ishlab chiqishga harakat qilishgan. Bunga Florensiya jadvalini misol sifatida keltirishimiz mumkin. XVIII asrda aholini o'rganish bo'yicha yetarlicha muvaffaqiyatlarga erishilganligiga qaramasdan, uni hisobga olish ishlari juda sodda, yondashuvlar esa juda muammoli, ya'ni davlat boshqaruvi manfaatlari bo'yicha amalga oshirilgan. Ushbu holat aholi statistikasi fanini ilmlarning mustaqil tarmog'i sifatida ajralib chiqqanligini ta'kidlash imkonini bermas edi, shuningdek, aholining rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan — demografiya haqida ham shunday deyish mumkin. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan sanoat to'ntarishi va uning keyinchalik ko'plab Yevropa mamlakatlariga yoyilishi yangi industrial sivilizatsiyaning jadal shakllanishi, shaharlarning tez o'sishi fan uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi, jumladan, odamlarning turmush tarzi va sharoitlarini ham keskin o'zgartirib yubordi. Buning natijasida XIX asrdagi demografik vaziyatning keskin o'zgarishi

boshlandi: o'limning kamayishi va yuqori darajadagi tug'ilishning natijasida aholi tez ko'paya boshladi. B.Urlanisning hisob-kitoblariga ko'ra, XIX asrda aholi sonining o'sishi Yevropa aholisining o'sish sur'atlariga nisbatan 7-marta, birlamchi to'planish davriga nisbatan 3-marta ko'p bo'lgan. Yevropa aholisi 100-yil ichida ikki marta, ya'ni 1800-yildagi 193-208 mln.dan 1900-yildagi 423-430 mln.gacha ko'paygan [10]. Eski dunyo(qadimiy dunyo va o'rta asr kishilariga ma'lum bo'lgan 3 qit'a — Yevropa, Osiyo va Afrikaning umumiy nomi. Bu nomning aksi Yangi dunyodir)dagi aholining zichligi va yangi yerlarni o'zlashtirish bo'yicha ehtiyoj Shimoliy va Janubiy Amerikaga ommaviy migratsiya uchun katalizator bo'lib qoldi [11]. O'z miqyoslariga ko'ra, u avvalgi yuz yilliklarga nisbatan qiyoslab bo'lmaydigan darajaga chiqdi. Yuz yil ichida 28 mln.dan ortiq kishi Yevropani tark etdi, ayniqsa, ularning yarmidan ko'pi oxirgi o'n yilliklarga — aholining zichligi ko'zga yaqqol tashlanadigan paytga to'g'ri keldi. Aynan shu yillarda mamlakatlararo (ayni paytda, kontinentlararo) migratsiyaga sobiq ittifoq mamlakatlari ham tortildi.

Shunday qilib, XIX asrdagi demografik fon — tug'ilishning oshishi, o'limning kamayishi, nikoh va migratsiya jarayonlari asosidagi aholi sonining o'sishi aholini ilmiy jihatdan tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlarning rivojlanishi uchun imkon yaratdi. O'z navbatida, bu doimiy tarzda demografik hodisalarni joriy statistik hisobga olish ishlarining yo'lga qo'yilishi va aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini amalga oshirishda o'z ifodasini topdi. Umuman olganda, ushbu davrdagi aholi statistikasi uning boshqa tarmoqlariga nisbatan juda ilgarilab ketdi. Bunga yirik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan usul va uslubiyotlar sabab bo'ldi. Masalan, belgiyalik olim A.Ketle (1796-1874-yy) aholini ro'yxatdan o'tkazish dasturini ishlab chiqqan. Shuningdek, olimning demografiya fani g'oyalarining rivojlanishida "Inson imkoniyatlarining rivojlanishi yoki ijtimoiy fizika tajribasi" nomli asari (1835-y) va "o'rtacha odam" konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [12].

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti rivojlana boshladi. Dunyoning aholisi zichroq joylashgan hududlarida madaniyat markazlari vujudga kela boshladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar aholi o'sishini tezlashtirdi. Sinfy jamiyatda aholining o'sish sur'ati ibtidoiy jamoa davriga nisbatan ancha tezlashdi. Buning asosiy sababi tug'ilishning yuqoriligidir. Tug'ilishning yuqoriligi esa ayollarning erta nikohga kirishi, tug'ilishning cheklanmaganligi, hamda ko'pbolalikni jamiyat, davlat va din tomonidan quvvatlanishi bilan bog'liq edi. Lekin quldorlik tizimi davrida ham aholi o'limi ancha yuqori bo'lgan. Sababi ko'pgina qishloq va shaharlarda aholining juda zich joylashuvi, sanitariya-gigiyena sharoitlari yo'qligi sababli yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligidir.

Eramizning boshida yer shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Aholining asosiy qismi Rim imperiyasida, Xitoy va Hindistonda joylashgan.

Demografiyaga oid asarlarda ko'rsatilishicha, sayyoramiz aholisi 300 mln. atrofida bo'lgan va uning asosiy qismi Osiyoda yashagan. Agar dastlabki 500-yilda (1000-1500-yillar) yer yuzidagi aholi soni 135 mln.ga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750-yillarda ya'ni, 250-yilda 288 mln.ga oshib, aholi o'sishi 2 barobarga oshdi [13]. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab aholining o'sishi yanada tezlashdi.

Dunyo aholisining 1000-yildan 2000-yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholining eng tez ko'paygan davri XX asrga to'g'ri keladi.

Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichda yer sharida inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan barcha yerlar aholi makonlariga, manzilgohlariga aylanib ulgurgan. Lekin aholi mazkur makonlar bo'ylab juda notekis joylashgan.

Yer kurrasida aholi nihoyatda zich yashovchi (1kv.km.ga 100 kishidan ortiq) hududlar bilan birga aholi juda siyrak joylashgan hududlar ham ko'p. Aholi joylashuvida asosiy omillar – tabiiy omillardir. XXI asr boshida yer kurrasida aholisi eng zich joylashgan hudud Osiyo hisoblanadi.

Bugungi davrda jahondagi demografik vaziyat besh asosiy xususiyatlar ta'sirida yangilanib bormoqda. Jahondagi demografik o'zgarishlarning birinchi xususiyati shundan iboratki, bizning davrimizga kelib, jahon aholisining o'sishi sekinlashdi. Ushbu xususiyat jahondagi demografik muammoni bir qadar yengillashtirdi. Biroq demografik o'sish sur'atining pasayishi barcha mamlakatlarda bir xilda kechayotgani yo'q. Xususan, bugun jahon aholisi kuniga 254 ming kishidan o'sib bormoqda. Shundan 13 mingga rivojlangan, 241 mingga esa rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan mamlakatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Buning natijasida jahon aholisi tarkibida rivojlanmagan mamlakatlar aholisi ulushi ortib bormoqda.

Jahondagi demografik o'zgarishlarning ikkinchi xususiyati bolalar o'limi koeffitsiyentining kamayib borishi bilan bog'liq. Keyingi yarim asr mobaynida rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash sistemasiga, ayniqsa bolalar sog'lig'ini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlarga jiddiy mablag' ajratilishi, turmush darajasining o'sishi, iqtisodiy taraqqiyot va shu kabilar bolalar o'limini 5 barobarga kamaytirdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bolalar o'limi 2 barobarga, rivojlanmagan mamlakatlarda 1,5 barobarga kamaydi. Bu mamlakatlar byudjetida katta defitsitning mavjudligi, yalpi ichki daromad miqdorining pastligi, jahon sog'liqni saqlash sistemasi bilan integratsiyaning yo'qligi, sanitariya-epidemiologiya shart-sharoitlarining noqulayligi bolalar o'limi koeffitsiyentining nihoyatda sekinlik bilan kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchi demografik xususiyat jahon mamlakatlarida tug'ilish miqdorining kamayib borayotganiga dahldor. Rivojlangan mamlakatlarda mazkur tendensiya ko'rinib turibdiki, har 1000 kishiga to'g'ri keladigan

tugʻilish miqdori barcha mamlakatlarda kamayib bormoqda. Biroq bu koʻrsatkich rivojlangan va rivojlanmagan mamlakatlarda turlicha mazmun kasb etmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda tugʻilish miqdorining kamayishi millat taqdiriga tahdid solayotgan omilga aylanmoqda. Koʻpgina yurtlarda mazkur xususiyat koʻrinib turibdiki, har 1000 kishiga toʻgʻri keladigan tugʻilish miqdori barcha mamlakatlarda kamayib bormoqda. Biroq bu koʻrsatkich rivojlangan va rivojlanmagan mamlakatlarda turlicha mazmun kasb etmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda tugʻilish miqdorining kamayishi millat taqdiriga tahdid solayotgan omilga aylanmoqda. Koʻpgina yurtlarda mazkur xususiyat aholi tarkibining tubdan oʻzgarishiga, aholi tugʻilishi va oʻlimi darajalari oʻrtasidagi muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Oqibatda aholining tabiiy kamayishi jarayoni tezlashib ketmoqda. Ayni paytda rivojlanmagan mamlakatlardagi tugʻilish miqdorining nisbatan kamayishi muttasil olib borilgan madaniy-maʼrifiy va tibbiy tadbirlarning samarasidir. Maʼlumki, mutasaddi xalqaro tashkilotlar rivojlanmagan mamlakatlarda uzoq yillar mobaynida kichik oilani, tegishli tibbiy preparatlarni targʻib etib keldilar. Asrimizning boshlariga kelib ushbu saʼy-harakatlar oʻz samarasini bera boshladi.

Toʻrtinchi demografik xususiyat jahon aholisi tarkibida keksa kishilar sonining ortib borayotgani bilan bogʻliq. XX asrga kelib, aholining qarishi surʼati demografik oʻsish surʼatlaridan ham tezlashib ketdi. Jahon aholisi tarkibida keksa kishilar sonining ortib borayotgani umumjahon tendensiyasiga aylanganiga qaramasdan, uning darajasi rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori. Masalan, umumjahon xususiyatiga aylanganiga qaramasdan, uning darajasi rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda istiqomat qilayotgan 60 dan oshgan kishilar soni rivojlanmagan mamlakatlardagiga qaraganda 3 barobar koʻp. Oqibatda rivojlangan mamlakatlarda bir mehnatga layoqatli kishi 2 pensionerni taʼminlashi kerak boʻlsa, rivojlanmagan mamlakatlarda bir fuqaroga 2 voyaga yetmagan bola toʻgʻri kelmoqda. Natijada rivojlangan mamlakatlarning hukumatlari fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshini kechiktirish, pensiya jamgʻarmalariga ajratmalarni oshirish, keksalarni ijtimoiy himoyalash va boshqa masalalar ustida bosh qotirmoqdalar. Rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda esa bunday vaziyat taʼlim sistemasini rivojlantirish, bolalar nafaqasini oshirish kabi muammolarga alohida eʼtibor berishga majbur qilmoqda. Masalalar koʻlami va xarakteri, tabiiyki, davlat siyosati va byudjetini ham mutanosib tarzda shakllantirishni taqozo qiladi.

Beshinchi demografik xususiyat XX asr soʻngida migratsiyaning misli koʻrilmagan oqimi vujudga kelgani bilan bogʻliq. Rivojlangan mamlakatlardagi tugʻilish miqdorining kamligi, aholi qarishi surʼatlarining yuqoriligi, jamiyat hisobiga yashash kayfiyatining kuchayib borayotgani tufayli iqtisodiyot

sohalarida bevosita band kishilar soni kamayib ketdi. Oqibatda rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchiga ehtiyoj osha boshladi. Ishchi kuchiga ehtiyoj qolmagan rivojlanmagan mamlakatlarning fuqarolari yoshlar kam va keksalar ko'p bo'lgan, shu bois ishchi kuchiga ehtiyoj oshib borayotgan rivojlangan mamlakatlarga oqib kela boshladilar. Migratsiya bo'yicha Xalqaro Tashkilotning ma'lumotlariga qaraganda, 2023-yilda o'z mamlakatidan tashqarida yashayotgan va ishlayotgan xalqaro migrantlar soni 220 milliondan oshib ketdi [14].

Xulosa va takliflar: Dunyodagi demografik vaziyat va uning rivojlanish istiqbollari haqidagi tadqiqotlardan kelib chiqib 20, 30, 40 yildan keyin dunyodagi demografik vaziyat qanday bo'lishini ilmiy asoslash muhim. Eng muhim 10 ta fakt buni tushunishga yordam beradi.

1. 2050-yilga borib dunyo aholisi 10 milliard kishiga yetishi mumkin.

2024-yilda dunyo aholisi 8 milliarddan ziyod kishini tashkil etdi. 2024-yilda sayyoramiz aholisi soni prognozlarga ko'ra yana 86 million kishiga oshadi va 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 8,5 milliardga yetishi mumkin. 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,4 milliarddan 10 milliardgacha bo'lishi ehtimoli yuqori.

2. O'rtacha umr ko'rish global miqyosda o'sib bormoqda

2010-yildan 2015-yilgacha dunyoda o'rtacha umr ko'rish 67 yoshdan 70 yoshgacha oshdi. Afrikada odamlar taxminan 60 yoshgacha, Osiyoda - 72, Lotin Amerikasida - 75, Yevropada - 77, Shimoliy Amerikada - 79. 2100-yilga kelib, o'rtacha umr ko'rish sayyora 83 yoshga yetadi.

3. Dunyo aholisining qarish sur'ati o'sib bormoqda

2015-yilda dunyo aholisining 12 foizini 60 yoshdan oshganlar tashkil etgan. Bu ko'rsatkich har yili 3,26 foizga o'sib bormoqda. Yevropada har to'rtinchi odam 60 yoshdan oshgan. Prognozga ko'ra, 2050-yilga borib dunyoda 60 yoshdan oshgan 2,1 milliard kishi bo'ladi, bu kutilayotgan aholining qariyb 20 foizini tashkil qiladi.

4. Dunyoda tug'ilishning umumiy darajasi pasayib bormoqda. Bu faqat Yevropada oshadi

Osiyo va Afrikada tug'ilish darajasi pasayib borayotganiga qaramay, bu aholining tabiiy o'sishi uchun yetarli. Bu ko'rsatkich past bo'lgan mamlakatlar - har bir ayolga 2,1 yoki undan kam bola to'g'ri keladigan mamlakatlar. Bu holat Shimoliy Amerika va Yevropada kuzatiladi.

2100-yilgacha dunyoda ayollar o'rtacha 2 nafardan ko'p bo'lmagan bola tug'adilar.

5. Sayyora aholisining o'rtacha yoshi ortib bormoqda

Ushbu ko'rsatkichning o'sishi butun insoniyatning qarishidan dalolat beradi. 2015-yilda sayyoramizdagi odamning o'rtacha yoshi 30 yoshni tashkil qilgan. Ammo uzoq muddatli prognozlarga ko'ra, 2050-yilga kelib u 36 yoshga, 2100-yilga kelib 42 yoshga ko'tariladi. Masalan, 2015-yilda yevropaliklarning

oʻrtacha yoshi 42 yoshni tashkil etgan boʻlsa, 2050-yilga kelib yevropaliklarni oʻrtacha yoshi 46 yoshgacha “oʻsadi”.

6. Yevropada aholi soni kamayib boradi

Yevropa aholisi 2050-yilga kelib 15 foizdan koʻproqqa qisqarishi kutilmoqda. Ukraina, Bolgariya, Vengriya, Xorvatiya, Litva, Latviya va Serbiya kabi mamlakatlarda aholi sonining kamayishi kutilmoqda. Yevropada 2050-yilga borib tugʻilishning umumiy koeffitsiyenti har bir ayolga 1,6 dan 1,8 bolagacha oshadi, biroq bu aholi sonining pasayish tendensiyasini oʻzgartirmaydi. Ukrainada 2015-yilda tugʻilishning umumiy darajasi har bir ayolga 1,5 bolani tashkil etdi, bu uzoq muddatli tabiiy harakat uchun zarur boʻlgan darajadan past (har bir ayolga taxminan 2,1 bola).

7. Afrika aholisi soni boʻyicha dunyodagi eng tez oʻsayotgan mintaqadir.

2015-2023-yillarda Afrika dunyodagi eng yuqori aholi oʻsish surʼatini qayd etdi - yiliga 2,55%. Bunday koʻrsatkichlar bilan 2024-yildan 2050-yilgacha uning aholisi 1,3 milliard kishiga koʻpayadi. Agar 2050-yilga borib sayyoramiz aholisining umumiy soni 2,1-2,7 milliard kishiga koʻpayishini hisobga olsak, bu muhim koʻrsatkichdir.

8. Hindiston aholisi soni boʻyicha Xitoydan oʻzib ketadi

2024-yil holatiga koʻra, Xitoy sayyoradagi eng zich joylashgan mamlakat hisoblanadi va uning aholisi dunyo aholisining 19 foizini tashkil qiladi. Bugungi kunda Xitoyda 1,38 milliard kishi istiqomat qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik boʻlimi prognozlariga koʻra, ularning soni 2030-yilga borib sezilarli darajada oʻzgarmaydi, hatto keyingi 20 yil ichida biroz qisqaradi. Hindistonda 2024-yilda 1,31 milliard kishi roʻyxatga olingan, bu esa dunyo aholisining 18 foizidan sal kamroqdir. Uning aholisi sonining oʻsish surʼati shuni koʻrsatadiki, 2030-yilda ularning soni 1,5 milliardga, 2050-yilda esa 1,7 milliardga yaqin boʻladi.

9. Kelgusi 35 yil ichida aholining eng katta oʻsishi kambagʻal mamlakatlarda kutilmoqda.

2024-2050-yillarda dunyo aholisining tabiiy oʻsishining yarmi 9 ta davlatga toʻgʻri keladi: Hindiston, Nigeriya, Pokiston, Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya, Tanzaniya Birlashgan Respublikasi, Indoneziya, Afgʻoniston, Uganda. Bular tugʻilish darajasi eng yuqori boʻlgan mamlakatlardir. Misol uchun, Nigeriyadagi aholi soni 2050-yilga borib AQSH aholisidan koʻp boʻladi.

10. Dunyodagi erkaklar va ayollar soni taxminan bir xil.

2022-yilda dunyoda har 100 ayolga 102 erkak toʻgʻri kelgan. Ushbu tadqiqot barcha yosh guruhlarini qamrab oladi. Erkaklarning har 100 ayolga nisbati eng yuqori boʻlgan davlatlar: BAA - 274, Qatar - 265, Bahrayn - 163. Litva va Latviyada har 100 ayolga eng kam erkaklar toʻgʻri keladi - 85. Masalan, Ukrainada 100 ayolga 86 erkak toʻgʻri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Z.N. Tojiyeva, F.A. Do‘smonov. Demografiya. Toshkent. 2020. 12 b.
2. Abdurahmonov. Q.X., X.X. Abduramonov. Demografiya. Noshir-2011.
3. Демография. Современное состояние и перспективы развития: Учеб. пособие/ Под ред. Д.И. Валентея. -М.: Высшая школа, 1997. – С.259.
4. Сова А. Мифология нашего времени — М: Прогресс, 1979. – С.103
5. Многоязычный демографический словарь. — Нью-Ёрк, 1973. – С.4
6. “Общая теория населения”, 1995. – С.170-171
7. Современная демография /Под ред. Кваши А.Я., Ионсева В.А. — М.:
8. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot” T.: “Fan” Nashriyoti – 2019-y.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi [www.stat.uz-rasmiy veb sayti](http://www.stat.uz-rasmiy-veb-sayti)
10. Qayumov A.A., Utepova G. Mehnat resurslarini takror barpo qilishning demografik asoslari. O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 21- jild. - T., 2000. 171-177 b.
11. Abdurakhmanov K., Zokirova N. Labour Economics and Sociology: Edited by: Prof. Dr. E.S.Margianti, SE., MM. Tutorial.- Jakarta.: Gunadarma Publisher, 2013, 430-p.
12. Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2011. – 4-5 b.
13. Xolmo‘minov Sh.R., Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013.
14. <https://labormigration.uz/Damodar> Gujarati. Econometrics by Example.
15. Tito Boeri, Jan van Ours The Economics of Imperfect Labor Markets: Second Edition Princeton University press Pirinceton and Oxford United Kingdom 2013.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

